

KASB TANLASHDA O'QUVCHILARDA USTUNLIK QILADIGAN MOTIVLAR VA ULARNING TURLARI

Abdullayev Raximjon Ravshanjon o'g'li

*Namangan viloyati Chust tumani MMTB ga qarashli
73-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalari va oila o'rtasida teng, ijodiy, manfaatli o'zaro hamkorlik uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishining dolzarbligi haqida fikr mulohazalar keltirib o'tilgan. Shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda zamonaviy kasb - bu maqsad emas, balki o'zligini anglash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish vositasi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda har qanday ta'lim olish imkoniyatlari ortib borayotgani bejizga emas.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, iqtidor, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka, shaxsiy qaror, kasbiy ta'lim, ehtiyojlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, ilmiy tadqiqotlar.

Shaxsning yaxlit o'ziga xosligi, dunyoga ishonchi, mustaqilligi, tashabbuskorligi va malakasi jamiyat o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifani - o'z taqdirini o'zi belgilash, hayot yo'lini tanlashni hal qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon yoshlarning zamonaviy kasblardan birini tanlashi murakkab, ko'p omilli va ko'p qirrali jarayondir. Ko'pgina fanlar bu jarayonning turli jihatlarini bilan shug'ullanadi. So'nggi yillardagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqola va kitoblar yoshlarning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, mehnat hayotining boshlanishi, hayot yo'llari masalalariga bag'ishlangan. O'smirlik davridagi zamonaviy kasblardan birini tanlash nafaqat yoshning shaxsiy qarori ekanligi balki shu bilan birga jamiyat va davlat uchun uning ijtimoiy samaradorligi uchun kata ahamiyat kasb etishini unutmazlik kerak. U hali kelajakdagi hayotining barcha jabhalarini to'liq amalga oshirishga tayyor emas va kattalar, ayniqsa ota-onalar va maktabdagi o'qituvchi va psixologlarning yordamiga muhtoj. O'quvchilarga kasb tanlashda yordam berish, ota-onalar u bilan nafaqat ma'lum kasblarning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek, ushbu kasblar bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlarini muhokama qiladilar. Shu bilan birga, ota-onalar muqarrar ravishda psixologga aylanadilar, chunki o'rta maktab o'quvchisining ehtiyojlarini, motivlarini, qobiliyatlarini ochib berish, ular o'rtasidagi munosabatlarni baholash kerak. Yoshlar ongida kasbiy o'zini o'zi belgilashga tayyorlik yo'q. Bunda o'qituvchilar va tengdoshlarning ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Zamonaviy kasblar dunyosi, zamonaviy faoliyat turlarining tabiati va xususiyatlari to'g'risida xabardor qiladi. O'smirning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar va qobiliyatlari imkoniyati kabi tushunchalarni bilishini yetarli darajada adekvat deb hisoblash mumkin. Salomatlik holati, ushbu omillar tufayli kasb tanlashda mumkin bo'lgan

cheklovlar, va turli tortishuvlar yuzaga chiqishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar ishtirok etadigan professional maslahat eng samarali usul hisoblanadi. O'quvchilarning kasb tanlashga qiziqish va motivlari asosan, o'rta yoshdan boshlanadi, shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi. Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga qiziqish darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu haqida o'quvchilarning sinf raxbari va ota-onalarini xabardor qilib borishlari zarur. O'quvchilarning zamonaviy kasblardan birini tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama izohlab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, o'rganishlar natijasida o'quvchilarning kasb tanlashida zamonaviy kasblarning mazmun mohiyati anglashda, ota-onalarning kasb tanlashga ta'siri juda katta ekanligini ko'rsatdi. Masalan, sub'ektlarning yarmidan ko'pi kasb tanlashda tashqi motivlarga yo'naltirilgan. Ko'pincha kasb yaqin atrof-muhit ta'siri ostida tanlanlanadi. Psixodiagnostika shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilari "o'qituvchi" va "shifokor" kabi kasblarni afzal ko'radilar, lekin kasblarning mohiyati va talablari har doim ham o'quvchilarga ma'lum emas. Bundan tashqari, ko'proq e'tibor, yuqori mas'uliyat va ijodkorlikni talab qiladigan kasblar ko'pchilik sub'ektlarning temperamentiga mos kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, kasblar tanlash - bu shaxsiy rivojlanish, ma'naviy yuksalish, o'z-o'zini qadrlash, mehnat unumdorligi, yuqori sifatli mahsulotlardir. Kasb tanlash - bu shaxs va jamiyat manfaatlarining yaqinlashishi, shaxsiy va umumiy manfaatlarining uyg'un kombinatsiyasi mumkin va zarur bo'lgan nuqtasi hisoblanadi. Shu bois ota-onalarga o'sib kelayotgan har bir yosh avlodni o'zining real imkoniyatlari va layoqatidan kelib chiqqan holda ularni kasb-hunarga yo'naltirish kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi kasbiy targ'ibot va tashviqotni o'z ichiga olgan kasbiy shaxs qiziqish va qobiliyatlarining birlamchi kasbiy tashxisi, kasb tanlashda mutaxassislar tomonidan individual, guruhiy yordam ko'rsatishga qaratilgan

kasbiy maslahatlar, ko'proq muvofaqiyatga erishishi mumkin bo'lgan kasbni tanlab olishga [qaratilgan kasbiy tanlov](#), ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-kasbiy moslashuv, tanlangan kasbni o'rganish jarayonida burch, mas'uliyat, kasbiy or-nomus hislarini o'quvchilarda shakllantirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga kasblar olami, kasblarning belgi va xususiyatlari, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlarni berish va ular asosida o'quvchi o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Климов Е. А. Как выбрать профессию — М.: Просвещение, 1990. — 158
2. Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. — М.: МЭИ, 1987. — 143 с.
3. Ратанова Т. А., Шляхта И. Ф. Психодиагностические методы изучения личности. — М.: Педагогика, 1998. — 267 с. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. -38 b
4. Хайдаров F.I., Халилова N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - 97 b